



“Involta” Ilmiy Jurnalni

Vebsayt: <https://involta.uz/>

NEMIS VA BOSHQA TARIXCHILAR TADQIQOTLARIDA AMIR TEMUR VA TEMURIYLAR DAVLATI IJTIMOIIY-IQTISODIY JARAYONLARINING O’RGANILISHI

Rustamov Davron Abduraxmonovich

Samarqand davlat universiteti Tarix fakulteti II-kurs magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada Amir Temur va Temuriylar davlati haqida asosan g’arb mamlakatlari asarlarida keltirilgan ma’lumotlar tahlil qilingan. Muallif tomonidan qisqacha xulosalar berilgan. Amir Temur va Temuriylar haqidagi ma’lumotlardan qanday foydalanish to’g’risida yo’nalishlar berilgan. Amir Temur va Temuriylar haqida ma’lumotlar bergan shaxslar va asarlarga alohida to’xtanilgan.

Kalit so’zlar: Genrix Sats «Baqtira shohi Tamerlan saltanati», Sharafiddin Ali Yazdiy, I. Shildberger, Rou Fidrxxs, Rui Gansales de Klavixo

Kirish. O’zbek xalqi o’zining qadimiy va nihoyatda boy tarixiga egadir. Hammaga ma’lumki, Amir Temurning nomi O’rta Osiyoda markazi - Samarqand shahri bo’lgan kuchli markazlashgan davlat bunyod etilishi va renessansning shakllanishi tarixi bilan bog’lanadi. Mazkur tarixiy voqea Temurning feodal tarqoqlikka, amir hamda beklarning o’zaro kurashi, turli qo’zg’olonlarga qarshi ko’p yillik izchil,

ayovsiz kurashi borasida amalga oshdi. Shu boisdan tabiiyki, Temur va temuriyzodalar hayoti va faoliyati haqida boy manbalar va adabiyotlar mavjud. Bular Temur davridan boshlab bir necha asrlar mobaynida yaratilgan.

Bu manbaa va adabiyotlar o'rta asrning murakkab hamda ulug' siymosi bo'lmish Temur haqida rang-barang qarashlarni o'zida mujassamlashtirgan. O'tgan 600 yil mobaynida Amir Temurga bag'ishlab yaratilgan jiddiy asarlar soni Evropa tillarida 660 tadan ziyod, Sharq tillarida esa 900 ga yaqinni tashkil etadi.

Birinchi qism — Amir Temurning shaxsiy fazilatlari (masalan, din ishlari, tarix, olimu-ulamolarga munosabati va boshqalar). Ikkinchi qism — Amir Temur va uning vorislari davlat boshqaruvi boshqa zamondosh davlatlar boshqaruvi bilan qiyoslanishiga bag'ishlandi.

Amir Temur va temuriylar davri tarixi xorijiy ilmiy adabiyotda ham keng tadqiq qilingan. Xususan, Nemis olimlarining Amir Temur shaxsi va uning faoliyatiga qiziqishi bundan 400 yil avval boshlangan edi. Gap shundaki, 1544 yili Genrix Sats nemis olimi «Baqtira shohi Tamerlan saltanati» asari bosilib chiqdi.

V. V. Ssorsning ta'kidlashicha, Shohruh davrining tarixchilari Chingizxon qonunlari oldida islom shariati yuqori mavqega erishgan bir paytda, tabiiyki, Temurning xudojo'yiligini va dinga bo'lgan jonkuyarligini bo'rttirib ko'rsatishga moyil bo'lganlar. Shubhasiz, Amir Temur ulamo ahlining homiysi bo'lgan, ular bilan tengma-teng muloqotlar olib borgan va ayniqsa payg'ambar avlodlariga alohida hurmat bilan qaragan: sohibqironning o'z tug'ishganlaridan tashqari uning davlatida hayoti daxlsiz hisoblangan yakkayu-yagona odamlar sayidlar bo'lgan deyish mumkin.

Bundan tashqari, Hofizi Abru yozishicha, Temur dini islomni mustahkamlash uchun g'amxo'rlik qilgan, u hech qachon vaqflarning pul bilan bog'liq ishlariga aralashmas edi. Bartold yana bir o'rinda Temur tarixni juda yaxshi bilgan, deb yozadi. Bartoldning bu so'zlari tarixchi Ibn Xaldunning Temur bilan bo'lgan suhbat mazmuniga suyanib yozilgan. Temur o'zining ona tili bo'lgan turk tilidan tashqari, forsiyni ham yaxshi bilgan va bu tilda olimlar bilan suhbatlar qurgan, o'z saroyida

tez-tez bo'lib turadigan «qissaxonlik» lardan olgan tarixiy bilimlari bilan tarixchi Ibn Xaldunni ham hayratda qoldirishi turgan gap edi. Shuning uchun ham jahonda taniqli bo'lgan sharqshunos V. B. Brand Temurni shunday ta'riflaydi: «U islom dini ta'limotining negizlarini shu darajada yaxshi bilardiki, diniy munozaralarni kuzatib borishi va ularda bemalol ishtirok etishi mumkin bo'lgan. Bularning hammasi uning harbiy muvaffaqiyatlariga ham yordam bergan.»

Uning amri bilan ajoyib bog'lar yaratildi, muhtasham binolar qad ko'tardi (birgina Samarqandda bunday binolar 20 mingdan oshiq edi), shaharlar, qishloqlar obod qilindi, yo'llar tiklandi, sug'orish inshootlari barpo etildi. SHarafiddin Ali Yazdiy asarini tadqiq etgan I.G.Horg aytishicha, u hosil ko'tarish mumkin bo'lgan biron bir er bulagining behuda yotishiga yo'l qo'ymagan ekan. Uning yaratuvchilik faoliyati vayrongarchilik ishlari kabi kishini lol qoldiradi. O'rta Osiyodagi ko'plab ulug'vor me'morlik yodgorliklari Temur va uning avlodlari nomi bilan bog'liq. Sharafiddin Ali Yazdiyning yozishicha, Temur Samarqandga hunarmandchilik, me'morlik, fan va boshqa sohalarda foydasi tegishi mumkin bo'lgan barchani olib kelaverishni buyurgan. «U turli kasbdagi hunarmandlarni yig'ishga urindi», deb yozgan edi Klavixo.

A.YU.Yakubovskiyning ma'lumotiga ko'ra, Samarqandning ishlab chiqarish qudratini oshirmoq maqsadida Temur bu erga Oltin Urda, Xuroson, Ozarbayjon, Armaniston, Fors, Mesopotamiya va boshqa viloyatlardan majburiy ravishda hunarmandlarni ko'chiradi. Tarixchilar XV asrda Samarqand aholisi etnik jihatdan rang-barangligini ta'kidlashgan. Temur harbiy yurishlar chog'ida jamg'argan boyligining katta qismini o'z poytaxti Samarqandni bezashga, yangi yo'llar va savdo rastalari qurishga sarfladi. Ibn Arabshohning guvohlik berishicha, Temur «dunyo savdogarlar sharofati bilan royishdir» deb hisoblaydi va nafaqat nchki, balki tashqi savdoni ham rivojlantirishga urinadi: bunda u faqat Yaqin va O'rta Sharq mamlakatlari emas, boshqa ko'plab mamlakatlar, jumladan Ispaniya, Fransiya, Angliya bilan savdo aloqalarin yaxshiladi.

Bu o'rinda Samarqandning g'arbiy Yevropa mamlakatlari bilan tashqi savdo aloqalariga tarixiy-geografik jihatdan baho berish kerak. XIV-XV asrlar chegarasida Temur shaxsi zamondoshlarinng e'tiborini jalb qilibgina qolmasdan, balki Temurning diplomat sifatidagi faoliyati ham mutaxassislar nazariga tushdi. Tarixchilar Temurning g'arbiy Yevropa davlatlari rahbarlari bilan qilgan yozishmalari haqida salmoqli dalillarga egadir. Tarixshunoslik bu borada etarli ma'lumotlarga ega. Ammo Temur davlatining Sharq va g'arb mamlakatlari bilan ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va madaniy o'zaro aloqalari tarixchilarimiz tomonidan kam o'rganilgan. Bu hol ayniqsa XV asrning boshi, Temurning Usmoniylar davlatiga qarshi g'arbgga yurishi, ya'ni «etti yillik» urushiga (1399-1404) tegishlidir. Shu o'rinda XVI—XIX asrlarda nemis madaniyatida Amir Temur mavzusi tutgan o'ringa alohida to'xtalib o'tish lozim.

Germaniyaning Markaziy Osiyo tadqiqotlari instituti direktori Rou Fidrxs tadqiqotlariga ko'ra, Germaniyada Amir Temurning tarixiy shaxsi bo'yicha ikki xil an'ana mavjud bo'lgan: qat'iy tarixiy yo'nalish manbalarni tadqiq qilishga asoslanib, akademik fan shug'ullanadigan jiddiy tarixiy metodologiyaga tayansa, adabiy afsonalarda u xayoliy personaj sifatida namoyon bo'ladi.

Fidrxs fikricha, Amir Temurda uni Markaziy Osiyo tarixidagi favqulodda yorqin shaxsga aylantirgan qator fazilatlar bo'lib, shulardan biri — uning fath etmagan yoki tasarrufiga olmagan hududlardagi mashhurligidir. Bunda gap Markaziy Osiyodan ancha yiroq (Xitoy, Eron, Hindiston, YAqin SHarq va, ayniqsa, Usmonlilar saltanati)dagi madaniyatlar xaqida bormoqda. G'arb madaniyatiga, eng avvalo, adabiyot va musiqa sohalariga singigan Amir Temur mavzusi ushbu jahonshumul shuhratning eng buyuk ko'rinishlaridan biridir.

Shuningdek, ko'plab yevropaliklarning bevosita shohidligi asosida bitilgan. Amir Temurga taalluqli bo'lgan asarlarning yuzaga kelishini Amir Temur davlati Kastiliya va Fransiyaning o'zaro manfaatdorligi bilan izoxlash mumkin. Bu asarlar marshal Busikoning (1366—1421) xotiralari, Smirna yaqinida Sohibqirondan mag'lub bo'lgan Quddusi shariflik Avliyo Ioann ordeni a'zolarining guvohliklari,

Sulton Boyazid I tomonidan 1396 yilda Nikopol yaqinidagi jangda asir olingan va Amir Temur tomonidan 1402 yilda Anqaradagi jangda zafar qozonilgach, ozod etilgan evropalik askarlarning hikoyalari.

Ular orasida I. SHildbergerning (1380—1440) hikoyasi mashhur bo‘lib, uning kitobining birinchi nashri 1460 yilda Augsburgda chop etilgan. Bu kitob XV asrda to‘rt marta, XVI asrda olti mar- ta qayta nashr qilingan. XIX asrda nemis, rus va ingliz tillarida ikki martadan nashr qilingan. Musiqashunos T.Vizgo Sohibqironning harbiy va saroy cholg‘ulari qatoridan joy olgan “tirsakli karnay” deb atalgan cholg‘uning asl nomini keltirmagan. Ammo uni jangu jadallarning doimiy ishtirokchisi-“suron suri”ning bir turi deb faraz qilish mumkin.

Xulosa

Amir Temur tarixnavisligi bosib o‘tgan yo‘lga fikran nazar tashlab, shuni qayd qilish mumkinki, jahon tarix adabiyotida zamonlar o‘tishi bilan Amir Temur shaxsini bir yoqlama, tor va bir xil tarzda talqin etishdan iborat dastlabki ko‘nikmalardan uni chuqur, keng va har yoqlama idrok etishga asta-sekin o‘tish tadriji sodir bo‘lmoqda. Zero, Amir Temur yuksak iqtidorli, tabiatan donishmand, buyuk davlat arbobi, bashoratli va irodali siyosatchi, Markaziy Osiyoda markazlashgan kuchli davlatning tashkilotchisi, hukmdori va bunyodkori sifatlarini o‘z qiyofasida mujassamlashtirgan shaxs sifatida jahon tarixidan munosib o‘rin olgan.

Amir Temur kabi ulug‘ zot shaxsi bilan bog‘liq afsona, rivoyat va hikoyatlarda uning «xalq nazaridagi suyuqli qahramon va adolatli podshoh» bo‘lganligi, voqealar tavsifida haqiqat va afsonaviylikning chambarchas bog‘lanib ketishi, xalqimizning avvalgi azim qurilishlarini Amir Temur nomi bilan bog‘lab kelayotganligi xalqimizning Sohibqiron haqidagi xotirasi boqiy ekanidan dalolat beradi. Demak, Amir Temur davri tarixnavisligi qudratli hukmdorning, jahon taraqqiyotiga qo‘shgan munosib hissasi to‘g‘risida muayyan xulosa chiqarish imkonini beradi.

Adabiyotlar

1. Темур тузуклари. Форсчадан Алихонтўра Соғуний ва Хабибулло Кароматов таржимаси. – Тошкент: 1991.
2. Амир Темур жаҳон тарихида / Масъул муҳаррир: Р. Қосимов. Муаллифлар жамоаси: С. Саидқосимов, А.Аҳмедов, Б.Аҳмедов ва бошқ. – Т.: “Шарқ”, 2006.
3. Шарафуддин Али Яздий. Зафарнома // Нашрга тайёрлаш, сўз боши, изох ва кўрсаткичлар муаллифлари А.Аҳмад, Ҳ.Бобобеков. – Т.: “Шарқ”, 1997.
4. Шлоссер Фридрих Кристоф. Всемирная история / Русский перевод под ред. В.А. Зайцева. Том 1. – Москва: 1967.
5. Руи Гонсалес де Клавихо. Самарқандга – Амир Темур саройига саёҳат кундалиги (1403-1406 йиллар) – Т.: “Ўзбекистон”, 2010.
6. Керен Л., Саидов А. Амир Темур ва Франция / Тўлдирилган ва қайта ишланган иккинчи нашри. – Тошкент: “Адолат”, 2016.